

SINONIMLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARIGA DOIR BA'ZI MULOHAZALAR (MAQSUD SHAYXZODA SHE'RLARI MISOLIDA)

Maxanova Feruza

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada sinonimlarning lingvopoetik xususiyatlari haqida fikr yuritilgan. Hamda shoir Maqsud Shayxzoda she'rlarida uchraydigan sinonimlarning lingvopoetik jihatlari xususida ayrim mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: sinonimlar, lingvopoetik xususiyatlar, polesemantika, leksema, leksik va kontekstual sinonimlar, kontekst.

Har bir nutq egasining lingvistik bazasi va uning tarkibi tilimizdagi sinonimlar, ularning uslubiy xususiyatlariga hamda polesemantik leksemalarning semantikasiga bog'liq holda ifodalanadi. Sinonimlarning an'anaviy qoidasiga tayanadigan bo'lsak, bir nechta so'zlarning yagona ma'no uchun xizmat qilishi haqida tushunchaga egamiz. Biroq sinonimlar hamma vaqt ham aynan bir ma'noni aks ettirish uchun qo'llanmaydi, xususan, ularning turli ekvivalentlari bir-biridan turli xususiyatlariga ko'ra farqlanadi. Masalan, bir sinonimik qataordagi leksemalar xususiyatlarini bilan, qolaversa, uslubiy xususiyatlari bilan, emotsionallik belgilari bilan, qo'llanishdagi faolnafaolligi bilan, matndagi maqsadi bilan, etimologik hamda leksik-semantik xususiyatlariga bilan farqlanadi. Bundan tashqari yana bir muhim xususiyatlaridan biri har bir adib o'zining so'z qo'llash mahorati orqali ma'lum maqsadlarni ko'zlaydi. Badiiy asarda shoirning, ijodkorning maqsadi asar badiiyatini baholashdan tashqari asar tilini tilshunoslik nuqtai nazaridan o'rganishiga yana bir sabab asarning mavzu va g'oyadan uzilib qolmasik uchun ko'p ma'noli so'zlar, sinonimlar, omonimlar, antonimlarga e'tibor qaratadilar. Bu esa turli qulayliklarni yuzaga keltiradi. Ana shu qulaylik sinonimik munosabatga kirishishgan, ular bajargan vazifani bajarishiga sabab bo'la oladigan, shunchaki so'z almashtirish emas, sinonimlarning bu jarayonda matn poetikasiga xizmat qiluvchi voqealarni va epizodlarni yaratishga xizmat qilishini ta'minlashdan iboratdir.

Lingvopoetika masalari yuzasidan yangi fikrlarni o'rtaga tashlab, ushbu sohaning keng ildiz otishiga o'zining ko'plab asarlari bilan hissa qo'shgan V.Ya.Zadornovning ilmiy izlanishlarida lingvopoetika sohasining aniq predmeti, maqsadi va muammolari ochib beriladi. Tilshunos "Matnning lingvopoetik jihatdan o'rganilishi tilning u yoki bu birligini shunchaki aniqlashga qaratilgan emas, balki badiiy asar ko'rsatadigan

estetik ta'sirni so'z yordamida izohlashga yo'naltirilgandir deb ta'kidlaydi"¹. Shu bois ham har bir asar tili ijodkorning so'z qo'lash mahorati orqali mavzular xilma-xilligi yuzaga keladi.

Tadqiqotimiz obyekti bo'lgan sinonimlarning leksik xususiyatlarini Maqsud Shayxzodaning she'riy to'plamlaridagi misollar bilan davom ettiramiz. Adibning "Toshkentnoma" dostonida sinonimlarning qo'llanishi xalqona so'z va ohanglarni yanada sodda va tushunarli chiqishiga xizmat qilgan.

Yon eshikdan kirdi kimdir,
Boqsam bizning oshna-mudir,
Rangi o'chgan, go'yo o'zga,
Bu – o'zgami, o'shamidir?
Zo'rg'a og'iz ochdi so'zga
Titrab dedi: «**Yomon** xabar.
Gitler bizga qildi **hamla**,
Sarhad bo'lgan zeru zabar!»

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da "hamla" so'ziga shunday ta'rif bergan:

1. Kimsa yoki narsa ustiga tashlanish. *U bir hamla bilan Sultonning yoqasidan ushlab, o'ziga tortdi* 2. Jang, kurash va shu kabilarda kuch bilan olg'a tashlanish; hujum. *Razvedka ma'lumotiga qaraganda, bu tepalikni bir hamla bilan Ko'lga olish mumkin emas edi* 3. ayn. Hujum². Hujum leksemasining sinonimi hisoblangan "hamla" leksemasi mazkur jumlada bir vaqtning o'zida bir nechta maqsadlarni ko'zlagan holda qo'llangan. Birinchidan, badiiy uslubning yorqin namunasi bo'lsa, ikkinchidan, *hamla* leksemasida "kutilmaganlik", "tahdid solish", "bostirib kelish" semalari bilan keng ma'noni anglatadi.

Adib asarlarida nutqiy sinonimlarning qo'llanishi o'ziga xos murojaat ko'rinishini hosil qiladi hamda kontekstda so'zning ekspressiv-estetik kuchini orttirib, o'ziga xos uslub yaratishga harakat qiladi. Birgina "yomon" leksemasining xabarga nisbatan qo'llanishi bunga yorqin dalildir.

Adib she'riyatida bir sinonim o'rniga boshqa sinonimlarni qo'llash orqali o'quvchida turli davr assotsiatsiyalarini (ikkinchi jahon urushi voqealari) gavalantirishga, ijtimoiy-siyosiy tasvirlarni chizishga va kitobxonni turli kayfiyatga solishga xizmat qiladi. Bu ijodkorning "niyati"ga bog'liq holda amalga oshadi. Masalan, shoir biror-bir voqeani tavsiflar ekan, kitobxon tuyg'ularini junbushga keltirishga yoki tinglovchining his-hayajonini yuzaga keltirishga uslubiy bo'yoqdor sinonim leksemalardan foydalanishi mumkin.

¹ Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс... д-ра филол. наук. –Москва, 1992.–С.59-60.

² <https://izoh.uz/word/hamla>

Maqsud Shayxzoda she'riyati tili sinonimlarning lingvopoetikasini o'rganish yangi ilmiy tahlillar va xulosalar uchun muhim hisoblanadi. Sinonimlarning lingvistik poetikasi nafaqat so'zlarning qo'llanilishini tahlil qilish, balki bu she'riy matnlarning umumiy mavzu ko'lamiga, uning ma'nosiga, emmotsional va badiiy qiymatiga qanday ta'sir qilishini aks ettiradi.

Adibning she'rlar to'plamidagi leksik va kontekstual sinonimlar, konnotativ birliklar, lingvokulturalogik birliklar she'rning umumiy ma'nosiga turli munosabatlarni aks ettirishga hissa qo'shadi. Ijodkor asarlarida uning maqsadiga qarab sinonimlarning turlari qo'llanadi. Ayniqsa, ma'lum kontekstlar uchun mo'ljallangan sinonimlar muhim badiiy ahamiyatga ega. Sinonimlardan unumli foydalanish tahlil etilayotgan she'rlarning ma'nosi, tuzilishi va badiiy ta'sirini qanday shakllantirishi haqida chuqur dalillarni yuzaga kelishiga asos bo'ladi. Bu borada lingvopoetika tilning badiiy mahoratiga chuqur kirib borish va she'riyatning yashirin sahifalarini ochishga imkon beruvchi sohadir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дисс... д-ра филол. наук. – Москва, 1992. –С.59-60.
2. <https://izoh.uz/word/hamla>
3. Maqsud Shayxzoda. Tanlangan asarlar. 6-jild. Toshkent. 1974. 234 b.
4. "Tafakkur gulshani". Toshkent. 1989. 459 b